

Ergashev Avaz Amon o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa

kafedrası o'qituvchisi

UDK: 94(575.146):656.8:654.1

BUXORO AMIRLIGIDA TRANSPORT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMINING SIYOSIY-STRATEGIK AHAMIYATI (TEMIR YO'L, POCHTA-TELEGRAF VA IMPERIYA NAZORATI MASALALARI)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro amirligi hududida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan transport-kommunikatsiya tizimining siyosiy-strategik mazmuni tahlil qilinadi. Temir yo'l, Amudaryo flotiliyasi, pochta-kuryerlik xizmati va telegraf tarmoqlari Rossiya imperiyasining mintaqadagi harbiy, diplomatik, iqtisodiy va ma'muriy manfaatlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Maqolada Kogon, Eski Buxoro, Chorjo'y, Karki, Kelif va Termiz hududlaridagi aloqa tarmoqlari, chegara postlari, rus manzilgohlari va siyosiy agentlik faoliyatining kommunikatsion asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijasida transport va aloqa tizimi amirlikda modernizatsion o'zgarishlar yaratgani bilan birga, imperiya nazorati va chegara xavfsizligi mexanizmlarini kuchaytirgan omil bo'lgani asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, transport-kommunikatsiya, pochta-telegraf, Amudaryo flotiliyasi, Kogon, Termiz, siyosiy agentlik, Rossiya imperiyasi, chegara nazorati, strategik yo'l.*

ПОЛИТИКО-СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНО-КОММУНИКАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ (железнодорожные, почтово-телеграфные и вопросы имперского контроля)

***Аннотация.** В статье анализируется политико-стратегическое значение транспортно-коммуникационной системы, сформировавшейся на территории Бухарского эмирата в конце XIX – начале XX века. Железные дороги, Амударьинская флотилия, почтово-курьерская служба и телеграфные линии рассматриваются во взаимосвязи с военными, дипломатическими, экономическими и административными интересами Российской империи в регионе.*

***Ключевые слова:** Бухарский эмират, транспорт и связь, почта и телеграф, Амударьинская флотилия, Каган, Термез, политическое агентство, Российская империя, пограничный контроль, стратегическая дорога.*

POLITICAL-STRATEGIC SIGNIFICANCE OF THE TRANSPORT-COMMUNICATION SYSTEM IN THE BUKHARA EMIRATE (railway, postal-telegraph and imperial control issues)

***Annotation.** This article examines the political and strategic significance of the transport and communication system formed in the Bukhara Emirate in the late nineteenth and early twentieth centuries. Railways, the Amu Darya flotilla, postal courier services and telegraph lines are analyzed in relation to the military, diplomatic, economic and administrative interests of the Russian Empire in the region.*

***Keywords:** Bukhara Emirate, transport and communication, postal and telegraph, Amu Darya flotilla, Kogon, Termez, political agency, Russian Empire, border control, strategic road.*

Kirish. Buxoro amirligida zamonaviy transport va aloqa tizimining vujudga kelishi faqat iqtisodiy ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lmagan. Bu jarayon Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy nazorati, harbiy xavfsizlik strategiyasi, chegara hududlarini kuzatish va diplomatik aloqalarni tezlashtirish maqsadlari bilan ham uzviy aloqador edi. Temir yo‘l, pochta-telegraf va daryo transporti birgalikda amirlik hududini imperiya boshqaruv tizimiga bog‘lovchi kommunikatsion tarmoqqa aylantirdi.

Amirlik hududining geografik joylashuvi bu masalani yanada muhimlashtirgan. Buxoro Rossiya imperiyasi, Afg‘oniston, Eron, Hindiston yo‘nalishlari va Turkiston general-gubernatorligi manfaatlari kesishgan hududda joylashgan edi. Shu bois temir yo‘l va aloqa tarmoqlari nafaqat tovar tashish, balki harbiy kuchlarni harakatlantirish, chegara postlari bilan tezkor aloqa o‘rnatish, siyosiy agentlik faoliyatini ta‘minlash va mintaqadagi xalqaro raqobatda ustunlikka erishish vositasi bo‘ldi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda transport-kommunikatsiya tizimi “iqtisodiy taraqqiyot belgisi” doirasidan tashqariga chiqarilib, siyosiy hokimiyat, harbiy strategiya va ma‘muriy boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv Buxoro amirligi tarixida modernizatsiya va imperiya nazorati jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari. Transport-kommunikatsiya tizimining siyosiy-strategik ahamiyatini o‘rganishda “Turkiston to‘plami”dagi xabarlar, D.N. Logofetning pochta-telegraf muassasalari haqidagi ma‘lumotlari, Rossiya imperiyasi Vazirlar Kengashi maxsus jurnallari va Buxoro davriy matbuoti muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa Termiz, Karki, Kelif, Ayvoj, Saroy, Chubek va boshqa chegara hududlarida telegraf tarmoqlarining yo‘lga qo‘yilishi haqidagi ma‘lumotlar aloqa tizimining harbiy-ma‘muriy vazifasini ochib beradi [1].

Maqolada tarixiy tizimlashtirish, manbalarni qiyosiy tahlil qilish, siyosiy-strategik yondashuv va kommunikatsion tarix metodlaridan foydalanildi. Temir yo‘l va telegraf bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona nazorat va boshqaruv tizimining tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqildi.

Mavjud tadqiqotlarda temir yo‘l qurilishi ko‘pincha iqtisodiy samaradorlik yoki transport tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Biroq pochta-telegraf, siyosiy agentlik, chegara xavfsizligi va harbiy garnizonlar bilan bog‘liq jihatlar birgalikda tahlil qilinganda, mazkur tizimning yanada chuqurroq siyosiy mazmuni ochiladi.

Temir yo‘l va imperiya nazorati. Rossiya imperiyasi uchun Buxoro amirligi hududidan o‘tadigan temir yo‘l birinchi navbatda strategik kommunikatsiya vazifasini bajardi. Temir yo‘l orqali harbiy qismlarni tez ko‘chirish, chegara hududlarini nazorat qilish, diplomatik vakolatxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va savdo yo‘llarini imperiya manfaatlariga moslashtirish mumkin edi. Shu bois temir yo‘l qurilishi masalasi har doim siyosiy ehtiyotkorlik bilan muhokama qilingan.

Kogon-Termiz yo‘nalishi atrofida munozaralar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Harbiy vazir V.A. Suxomlinovning Kogon va Termiz o‘rtasida temir yo‘l tortish taklifi, Turkiston ma‘murlarining esa bu yo‘nalish Afg‘oniston va Hindiston bilan bog‘liq xalqaro vaziyatda ehtiyotkorlik talab qilishini ta‘kidlagani manbalarda aks etadi. Bu temir yo‘l masalasining oddiy xo‘jalik tadbiri emas, balki mintaqaviy geosiyosiy hisob-kitoblar bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi [3].

Termiz yo‘nalishi ayniqsa muhim strategik hudud sifatida qaraldi. Termizda Rossiya imperiyasi askarlaridan iborat garnizon joylashtirilishi, alohida pochta va telegraf tarmoqlariga ehtiyoj paydo bo‘lishi, Amudaryo flotiliyasining favqulodda vaziyatlarda yetarli harakat qila olmasligi kabi omillar quruqlik kommunikatsiyalarini kuchaytirishni talab qildi. Samarqand-Termiz trakti va keyinchalik temir yo‘l yo‘nalishi shu ehtiyojlar bilan bog‘liq holda shakllandi [8].

Shu ma‘noda Buxoro amirligidagi temir yo‘l transporti imperiya periferiyasini markaz bilan bog‘lash mexanizmi bo‘ldi. Temir yo‘l chizig‘i bo‘ylab rus manzilgohlari, texnik xizmat

nuqtalari, qo'riqlash tizimlari va ma'muriy aloqalar vujudga keldi. Bu esa amirlik hududida Rossiya imperiyasi ta'sirining institutsional shaklda mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Pochta-telegraf tarmoqlari va boshqaruv tezligi. Zamonaviy aloqa tarmoqlari Buxoro amirligida siyosiy boshqaruv tezligini oshirdi. Avval xabarlar choparlar, karvonlar yoki maxsus elchilar orqali yetkazilgan bo'lsa, telegraf tarmoqlari orqali ma'lumot almashinuvi sezilarli darajada tezlashdi. Bu o'zgarish imperiya ma'murlari uchun katta qulaylik yaratdi, chunki uzoq hududlar bilan bevosita va tezkor aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi.

Chorjo'y, Karki, Yangi Buxoro, Eski Buxoro va Kelif kabi hududlarning pochta-telegraf tarmog'iga ulanishi aloqa tizimining bosqichma-bosqich kengayganini ko'rsatadi. 1894-yilda Buxoroning Rossiya bilan umumiy bojxona tizimiga o'tkazilishi ham aloqa tarmoqlariga ehtiyojni kuchaytirdi. Kelifda avval telegraf, keyin pochta xizmati yo'lga qo'yilgani, Termiz va chegara postlarida telegraf xizmatlari tashkil etilgani bunga dalildir [9].

Pochta-telegraf tizimi faqat rus manzilgohlarida yashovchi aholining shaxsiy ehtiyojlari uchun xizmat qilmagan. U siyosiy agentlik, harbiy garnizon, bojxona xizmati, chegara nazorati va savdo boshqaruvi uchun zarur infratuzilma edi. Telegraf orqali xabar almashinuvi davlat boshqaruvida vaqt omilini qisqartirdi. Bu esa markaziy nazoratning kuchayishiga olib keldi.

Eski Buxoro va Yangi Buxoro o'rtasidagi aloqa alohida ahamiyatga ega edi. Kogonda joylashgan Rossiya siyosiy agentligi amirlik hukumati bilan muntazam aloqada bo'lib turishi zarur edi. Shu sababli bu ikki markaz o'rtasidagi temir yo'l va qatnov jadvali nafaqat transport qulayligi, balki siyosiy muloqot infratuzilmasi sifatida ham muhim bo'lgan [3].

Amudaryo flotiliyasi va chegara hududlari. Amudaryo flotiliyasi Buxoro amirligining janubiy va janubi-g'arbiy hududlarida kommunikatsion imkoniyatlarni kengaytirgan muhim vositalardan biri edi. 1888-yilda flotiliyaning tashkil etilishi Karki va unga tutash hududlarga pochta xabarlarini yetkazishda ma'lum darajada qulaylik yaratdi. Biroq daryo transporti mavsumiylik, suv sathi, harbiy xavfsizlik va masofa omillari sababli hamma vaqt ham yetarli samaradorlikka ega bo'la olmadi.

Shu sababli daryo transporti bilan quruqlik transporti o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida rivojlandi. Amudaryo flotiliyasi chegaradagi harakatlarni ta'minlagan bo'lsa, temir yo'l va telegraf tarmoqlari tezkor boshqaruv hamda harbiy-ma'muriy aloqa vazifasini bajardi. Bu jihatdan Buxoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi kommunikatsion strategiyasining sinov maydonlaridan biriga aylandi.

Chegara postlariga yaqin qishloqlarda bir yoki ikki xizmatchi tayinlanib telegraf xizmatining yo'lga qo'yilishi imperiya nazorati qanday mayda ma'muriy bo'g'inlargacha kirib borganini ko'rsatadi. Ayvoj, Saroy, Chubek, Bogarak singari hududlar aloqa tarmoqlariga ulangan sari chegara nazorati kuchaydi. Bu esa amirlik suverenitetining amaliy jihatdan cheklanganini ham anglatadi.

Afg'oniston, Hindiston va Kofiriston yo'nalishlari haqidagi matbuotdagi mulohazalar transport tizimining xalqaro savdo va siyosiy raqobat bilan bog'liq istiqbollarni aks ettiradi. Ba'zi maqolalarda Buxoroning kelajakda yirik tijorat markaziga aylanishi haqida optimistik fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, bunday qarashlar ortida imperiya manfaatlariga mos kommunikatsion reja ham mavjud edi [4].

Modernizatsiya va qaramlik ziddiyati. Buxoro amirligidagi transport-kommunikatsiya tizimini baholashda modernizatsiya va qaramlik ziddiyatini hisobga olish zarur. Temir yo'l, telegraf va pochta xizmatlari shubhasiz amirlik hayotiga yangilik olib kirdi. Xabar almashinuvi tezlashdi, savdo aloqalari kengaydi, hududlararo bog'lanish kuchaydi, yangi kasb egalari va texnik xizmat ko'rsatish guruhlarini shakllandi.

Biroq mazkur yangiliklar mustaqil milliy modernizatsiya mahsuli emas edi. Ular asosan Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini asosida joriy etildi. Shuning uchun transport-kommunikatsiya tizimi bir vaqtning o'zida ham taraqqiyot belgisi, ham nazorat mexanizmi bo'ldi. Bu holat mustamlaka va yarim mustamlaka hududlar tarixiga xos umumiy qonuniyatlardan biridir.

M.Menshikov kabi mualliflarning Buxoro haqidagi salbiy, sivilizatsion ustunlik ruhidagi qarashlari imperiya mafkurasining mazkur infratuzilma orqali o'zini oqlashga intilganini ko'rsatadi [2]. Bunday manbalarga tanqidiy yondashish lozim, chunki ularda Buxoro jamiyati "qoloqlik" timsoli sifatida tasvirlanib, imperiya aralashuvi taraqqiyot omili sifatida ko'rsatiladi. Aslida esa bu jarayon mahalliy jamiyat manfaatlari va imperiya maqsadlari o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar asosida kechgan.

Shu nuqtayi nazardan, Buxoro amirligida transport-kommunikatsiya tizimining vujudga kelishi tarixiy taraqqiyotning oddiy chiziqli ko'rinishi emas. U amirlikning ichki ehtiyojlari, mintaqaviy savdo aloqalari, Rossiya imperiyasining strategiyasi, Afg'oniston-Hindiston yo'nalishidagi xalqaro raqobat va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tutashgan murakkab jarayon edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi mintaqa tarixida muhim burilish yasadi. Temir yo'l, pochta-telegraf va Amudaryo flotiliyasi amirlik hududlarini yangi aloqa maydoniga tortdi. Bu jarayon iqtisodiy aloqalarni kengaytirgan bo'lsa-da, uning siyosiy-strategik mazmuni yanada chuqur edi.

Transport-kommunikatsiya tizimi Rossiya imperiyasiga Buxoro hududida harbiy, siyosiy va iqtisodiy nazoratni kuchaytirish imkonini berdi. Kogon siyosiy agentligi, Termiz garnizoni, chegara postlari, pochta-telegraf tarmoqlari va temir yo'l bekatlari yagona boshqaruv mexanizmining tarkibiy qismlariga aylandi.

Shu sababli Buxoro amirligidagi temir yo'l va aloqa tizimlarini faqat modernizatsiya ko'rsatkichi sifatida baholash yetarli emas. Ular amirlik jamiyatida yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, imperiya nazorati va iqtisodiy-siyosiy qaramlikni chuqurlashtirishga ham xizmat qildi. Mazkur masalani yanada chuqur o'rganish Buxoro amirligi tarixidagi modernizatsiya jarayonlarining murakkab va ziddiyatli mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Poyezdlar vaqti // Buxoroyi sharif. 20-son. 1912-yil 3-aprel.
2. Qarshi temir yo'li // Turon. 13-son. 1912-yil 27-avgust.
3. Turkiston xabarlari rukni. Yangi temiryo'l // Turon. 39-son. 1912-yil 6-dekabr.
4. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши 1887 г. // Туркестанский сборник. Том 544. – С. 167–207.
5. Логофет Д.Н. Почтово-телеграфные учреждения в Бухарских владениях // Туркестанский сборник. Том 442. – С. 104–107.
6. Меншиков М. Маленькие соседи // Туркестанский сборник. Том 542. – С. 50–54.
7. Особые журналы Совета министров Российской империи. 1909–1917 гг. / 1910 год. – М.: РОССПЭН, 2001. – 496 с.
8. История железнодорожного транспорта России. Т. 1. 1836–1917 гг. – СПб., 1994. – 336 с.
9. Литвинов В.П. Первая железная дорога в Средней Азии и ее охрана: историко-правовой аспект // Власть. 2021. № 04. – С. 240–246.